



## TARIXIY MADANIY YODGORLIKLARNING O'QUVCHILAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Sh.S.O'roqova

TerDU Boshdang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7427290>

### ARTICLE INFO

Received: 30<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> December 2022

Online: 12<sup>nd</sup> December 2022

### KEY WORDS

Moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, axloq, tarbiya, bilim oila, dunyoqarash, aql, zukkolik, komil inson.

Tarixiy madaniy yodgorliklarning o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'ri beqiyos. Chunki bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. (1) Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlab ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tarbiya, ta'lim, bilim, ma'naviy qarash, insoniy fazilatlar, oila mustahkamligi va ijtimoiy muhitning o'quvchilarning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishdagi masalasi yetakchi o'rinni egallagan.*

hosil insonlarning rizqi, tirikchiligini muhim manbasi hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Aytish mumkinki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham



hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamlı jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda.(2) Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqarolarimiz orasidagi o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik fazilatlarining namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning «Shu aziz Vatan barchamizniki» degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim ro'l o'ynamoqda. O'zbek xalqimiz juda boy Tarixiy madaniy merosga ega. Mana shunday madaniy yodgorliklar majmuasiga birgina Surxon vohasini oladigan bo'lsak yuzlab madaniy meroslar o'chog'i bo'lib tarix zarvaraqlarida iz qoldirgan bebaho markazlarimiz bo'lmish: Qirg'iz qal'asi — Termiz tumanida joylashgan, IX-X asrlarda qurilgan me'moriy yodgorlik. Hozirgi vaqtda yodgorlikning vayronalari saqlanib qolgan bo'lib, ular ming yilliklardan keyin ham qadimiy inshootning avvalgi ulug'vorligini ko'rsatib turibdi. Tadqiqotchilar bu tuzilma o'tmishda qanday vazifani bajarganligi haqida turli farazlarni ilgari suradilar. Balki bu inshoot qadimda shahar chetidagi zodagonlar saroyi, ayollar madrasasi, xonaqoh yoki karvonsaroy bo'lgandir. Ammo ko'pchilik tarixchilar bu bino Ko'hna Termizning mudofaa qal'asi bo'lib xizmat qilgan, degan fikrga qo'shilishadi. **Kokildor ota xonaqohi**-Kokildor ota xonaqohi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, XI asr o'rtalarida qurilgan. Bu bino musulmon olamida hurmatga sazovor bo'lgan muqaddas qadamjodir. Xonaqoh o'zining

g'ayrioddiy loyihasi va me'morchiligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bino XV asrda qayta qurilgan, ya'ni old tomondagi ochiq devorga ulug'vor ayvon qo'shilgan. **Sulton Saodat majmuasi**-Termiz sayidlari qabri joylashgan maqbaralar majmuasi. IX asrda Termiz sayidlari sulolasi shakllanib, ular davlat rivojiga katta hissa qo'shganlar. Bu mintaqaning ko'plab aholisi o'zlarining kelib chiqishini qadimgi sulola bilan bog'lashadi. Asosiy maqbaralar majmuasi XII asrda, qolganlari XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilgan. Ular uzun hovlining ikki tomonida joylashgan bo'lib, tomli va gumbazli to'rtta zaldan iborat. **Said Vaqqos maqbarasi**-Said Vaqqosning to'liq ismi Ahmob ibn Abu Said Vaqqos Termiziydir. Bu olimning hayot yillari va ijodiy faoliyati haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. U Imom al-Hakim at-Termiziy yashagan Bug qishlog'i yaqinida dafn etilgan. Said Vaqqos ham Imom Termiziy kabi Sayidlar avlodidan, degan taxmin bor. Olimlarning fikricha, Sherobodagi Abdulla Said Vaqqos maqbarasi XI-XII asrlarda qurilgan. Demak, Abdulloh Said Vaqqos at-Termiziy ancha ilgari yashagan. **Hakim at-Termiziy majmuasi**- noyob me'moriy yodgorlik va musulmonlarning muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi. U Eski Termizning chekkasida joylashgan. Maqbarada buyuk islom arbobi Abu Abdulloh ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy dafn etilgan bo'lib, bu zot xalq orasida hurmat bilan "Termiz otasi" deb atalgan. At-Termiziy majmuasi hududida yana bir qancha qiziqarli, diqqatga sazovor joylar mavjud. Bular chillaxonalar, ya'ni miloddan avvalgi V-X asrlarga oid qadimiy g'or inshootlari, qadimiy Tarmita shahri (Eski Termiz) xarobalari va Termiz shahri muzeyi. **Fayoztepa buddaviylar ibodatxonasi**-Miloddan avvalgi I asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan davrga oid Fayoztepa yodgorligi ibodatxonalar majmuasi bo'lib, Eski Termiz hududida, Amudaryo sohillari va qadimgi karvon yo'li oralig'ida joylashgan. Bir vaqtlar bu yerda



uchta katta bino bor edi: ma'bad, ibodatxona va yordamchi xonalari bo'lgan hovli. Majmua bugungi kungacha o'zining ulug'vorligi va g'ayrioddiy shakli bilan hayratda qoldiradi. **Qoratepa budda g'or ibodatxonalari majmuasi**— Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan budda ibodatxonalari majmuasi. Yodgorlik 3 ta tabiiy tizma ustida qurilgan. Umumiy maydoni 8 gektardan oshadi. Qoratepada birinchi buddaviylik ibodatxonalari milodiy I asr boshlarida paydo bo'la boshlagan. Ma'bad majmuasining gullab-yashnagan davri eramizning II-III asrlariga to'g'ri keladi. **Kampirtepa qal'asi** - Termiz shahridan 30 km uzoqlikda, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar. 2018-yilda arxeologlar Iskandar Zulqarnaynning qarorgohi bir paytlar shu yerda - Oks (Amudaryoning boshqa nomi) bo'yidagi qadimiy Iskandariyada joylashganligini isbotladilar. Arxeologik qazishmalar davomida buyuk sarkarda bu yerga kelgan davrga oid madaniy qatlamlar o'rganilib, qimmatbaho buyumlar topildi. **9. Xo'jaikon tuz g'ori** Xo'jaikon tuz g'ori Sherobod tumanida joylashgan bo'lib, bir necha yildan buyon sanatoriy-kurort davolash xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Xizmatlardan biri speleoterapiya bo'lib, bu shifobaxsh tuzli g'orda davolash turidir. Xo'jaikon tuz g'ori 1989-yilda topilgan. Bunday g'orda bo'lish astma, nafas olish kasalliklari, surunkali bronxit, pnevmoniya asoratlari, shuningdek, teri kasalliklari va immuniteti pasaygan bemorlar uchun juda foydalidir. Ushbu tuz g'orining boshqa turdagi g'orlardan afzalligi shundaki, dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashganligi uchun bu yerning iqlimi quruq. Xo'jaikon tuz g'orining uzunligi 155 metr bo'lib, uning ichida bir-biridan harorati, namlig, bosimi va mikroelementlari bilan farqlanadigan 3 ta davolash xonasi mavjud. **Zarautsoy qoyatosh suratlari**-Zarautsoy petrogliflari Hisor tizmasining janubi-g'arbida,

Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'rlarida, Sherobod tumanida joylashgan Zarautsoy darasidagi eng qadimiy qoyatosh rasmlari hisoblanadi. 1912-yilda bu yerdan qizil angobda chizilgan 200 dan ortiq tasvir topilgan. Zarautsoy qoyatosh suratlari itlar bilan yovvoyi buqalarni ovlayotgan odamlar tasvirlangan. Qoyatoshlarda hayvonlar, jumladan, yovvoyi buqa, it, tulki, cho'chqa, jayron, tog' echkisi, hasharotlar va turli buyumlar (kamon, nayza, o'roq) hamda niqobli odamlar o'ziga xos tarzda tasvirlangan. **Sayrob chinori**— Sayrob chinori ming yoshdagi "hayot daraxti" bo'lib, mahalliy aholi tomonidan juda ardoqlanadi. Daraxt tanasining ichi bo'sh, unda hosil bo'lgan kovak shunchalik kattaki, avvallari uning ichida yigirma nafar o'quvchi va o'qituvchi sig'adigan kichik maktab bo'lgan. Hozir ichkarida kichik muzey joylashgan. Chinor tabiiy yodgorlik sifatida muhofazaga olingan bo'lib, bu maskan mahalliy ziyoratgoh hisoblanadi. **Teshiktosh g'ori**-Teshiktosh g'ori Boysuntov tog'larida joylashgan bo'lib, Musteriya madaniyati o'rni ekanligi va u erdan topilgan neandertal qizning qabri bilan mashhurdir. Dafn qilingan joy atrofiga tog' echkisining shoxlari o'rnatilgan bo'lib, tevaragiga qizil bo'yoq bilan aylana chizilgan. Shuningdek, g'ordan 3000 ga yaqin ro'zg'or buyimlari va mehnat qurollari topilgan. G'orning o'zi dengiz sathidan 1550 metr balandlikda joylashgan. Tog' cho'qqisiga chiqqach, Qarshi dashti va Derbent qishlog'iga olib boradigan katta yo'l ni ko'rasiz. **"Omonxona" sanatoriysi**-Boysun tumani markazidan sharqqa eltuvchi katta yo'l chetidagi belgi "Omonxona" sanatoriysiga yetaklaydi. Sanatoriy Omonxona qishlog'ida joylashgan. Mahalliy oqsoqollarning aytishicha, bu yerda 700 yildan beri odamlar yashaydi. Buni qishloqdagi eski qabriston va undagi qabr toshlari ham tasdiqlaydi. "Omon" so'zi sog'lom, xavfsiz, tinch, osoyishta, "xona" so'zi esa xona, joy, manzil, makon ma'nolarini bildiradi. Xullas, "Omonxona"



tinchlik, salomatlik va osoyishtalik maskanidir. Katta yo'ldan burilib, qirlar orasidan 15 kilometr yurganingizdan so'ng qishloq markaziga yetib borasiz. **Xo'ja Gur ota mavzesi**-Xo'ja Gur Gur ota mavzesi Boysun tog'larining eng diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lib, bir tomonida besh yuz metrlik qoya, yana bir tomonida chuqur kanyonlar joylashgan g'ayrioddiy ulkan cho'qqidir. "Barcha g'orlarning otasi" - Xo'ja Gur Gur ota tog' tizmasi aynan shunday nomlanadi. Bu joy faqat alpinistlar va ekstremal sportchilarnigina o'ziga jalb qilish bilan cheklanmaydi. Ushbu maskanda qadimiy ziyoratgoh va muqaddas buloqli dara ham bor. **To'palang suv ombori**-Surxondaryo viloyati hududida 5 ta suv ombori joylashgan bo'lib, ulardan biri To'palang suv omboridir. Uning qurilishi 1982-yilda Sariosiyo tumanida boshlangan. Bugungi kunda to'g'onning balandligi 122 metr bo'lib, bu joy Surxon vohasining eng so'lim tabiatli maskanlaridan biridir. Suv omborining asosiy suv manbai Hisorning janubiy tog' tizmalaridan oqib o'tuvchi Qoratog' va To'palang daryolarining irmoqlaridan hosil bo'lgan To'palang daryosi bo'lib, bu daryo Amudaryoning o'ng irmog'i hisoblanadi. To'palang tojikchada "Qizil daryo" degan ma'noni anglatadi. Daryoning uzunligi 175 km, havzasining maydoni 13500 km. Iyundan avgustgacha bo'lgan davr oralig'ida daryo suvi toshadi. **Sangardak sharsharasi**-Sangardak sharsharasi Termiz shahridan 205 kilometr uzoqlikda, Sariosiyo tumani hududida joylashgan. Sangardakni haqli ravishda O'zbekistonning eng go'zal maskanlaridan biri deyish mumkin. Balandlikdan tushgan suv tomchilari tumanga o'xshab havoga ko'tariladigan milliardlab mikroskopik zarrachalarga parchalanadi. Sharshara atrofidagi qoyalar yashil yo'sin bilan qoplangan. Mahalliy e'tiqodga ko'ra, Sangardak hududida daraxtga kichik mato bog'lab, tilak bildirsangiz, albatta ijobat bo'ladi. **Xo'jaipok sog'lomlashtirish markazi**

Xo'jaipok bir vaqtning o'zida ham ziyoratgoh, ham sog'lomlashtirish maskanidir. Xo'jaipok ismi Abdurahmon ibn And hazratlarining laqabidir. Bu g'or Kenagi tog'ining etagida joylashgan. G'orning chuqurligi mutaxassislar tomonidan to'liq o'rganilmagan. G'or yuzasidan oqib o'tadigan shifobaxsh buloq suvi 45 metrgacha oqib borib, kichik yerosti daryosiga quyiladi. G'ordan sekundiga 200 litrga yaqin suv chiqadi. Suv tarkibi Semashko nomidagi Ilmiy- tadqiqot markazi laboratoriyasi tomonidan o'rganilgan bo'lib, u natriy, kaliy, kaltsiy, natriy bikarbonat, kremniy kislotasi, azot, temir, alyuminiy va boshqa mikroelementlarni o'z ichiga olganligi aniqlangan. **Dalvarzintepa yodgorligi**-Kushon podsholigii davri (eramizning I-IV asrlari) yodgorliklari orasida Termiz shahridan 60 km uzoqlikda, Sho'rchi hududida joylashgan Dalvarzintepa qadimiy manzilgohi alohida o'rin tutadi. Shahar xarobalarida olib borilgan qazishmalar davomida fil suyagidan yasalgan turli anjomlar, qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar, tangalar, yunon-Baqtriya davriga oid nafis kulolchilik namunalari topilgan bo'lib, ularning orasida dunyodagi eng qadimgi shaxmat donalari alohida o'rin tutadi (eramizning I-II asrlari). **Iskandar ko'prigi**-Ushbu qadimiy ko'prik XVI asrda qurilgan bo'lib, Hisor tog'larining janubiy hududlarini Ko'hna Termiz bilan bog'lagan qadimiy savdo yo'li o'rnida joylashgan. Ko'prik hozirgi Qumqo'rg'on tumanidagi M41 avtomagistrali yaqinida joylashgan. Mahalliy aholi uni G'isht ko'prik yoki Iskandar Zulqarnayn ko'prigi deb ataydi. Mahalliy afsonada aytilishicha, bu joyni Aleksandr Makedonskiy o'z qo'shini bilan kesib o'tgan. Dastlab, ko'prik suv o'tkazgich vazifasini bajargan va uning ostidan kengligi 20 metr va chuqurligi 10 metr bo'lgan oqim o'tgan. **Jarqo'rg'on minorasi**-Minora Qumqo'rg'on va Termiz oralig'idagi Minor qishlog'ida joylashgan bo'lib, Sulton Sanjarning buyrug'i bilan



1109-yilda qurilgan. Hozirda uning balandligi yigirma metr dan oshadi, lekin qurilish vaqtida qirq uch metrga yetgan. Minoraga qarab, uning bezaklaridan ko'zingizni uzolmaysiz. G'ishtlarning mahorat bilan archa naqshida terilganligi to'qilganlik effektini yaratadi. Minoraning ostida turganingizda, terilgan g'ishtlar g'isht emas, balki mato kabi ko'rinadi. Minora bir-biriga tutashgan o'n olti yarim ustundan iborat. Ushbu yodgorliklarning o'quvchilar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati shundan iboratki, o'sib kelayotgan yosh avlodga tarixiy merosini asrab -avaylash va uni kelgusi avlodga yetkazib berishdagi mas'uliyatini tushuntirib berish lozim. O'quvchilarga bu muqaddas qadamjolariga sayohatlar uyushtirib, har bir tarixiy yodgorliklarimizning ahamiyatini

tushuntirib, "Siz azizlar buyuk tarixiy-madaniy yodgorliklarimizning egasi va kelgusi avlodga eltuvchisizlar" degan g'oyani o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatiga yetkazib bera olishimiz zarur. Har bir o'g'lonlarimiz yuragida men Alpomish-u Temurbeklar avlodidan, qizlarimiz men Barchinoy-u To'maris qiziman degan g'oya jo'sh ursagina prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek(4) : "Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko'rgan qiyinchiliklarni ko'rmay, ozod vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo'lida siz -yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas'uliyatni, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat'iy ishonaman".

## References:

1. Sh.M.Mirziyoyevning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli rezolyutsiya qabul qilish taklifi BMT Bosh Assambleyasining 12 dekabrda yalpi sessiyasida"gi fikri
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson ahloqi. -T.; «Yozuvchi»,
3. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari asoslari. "Farg'ona", 1998.
4. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: «O'zbekiston», 1998.
5. Boboev X va boshqalar. Madaniyatshunoslik asoslari.-T.; 2001.
6. Отамуродова, Ш. К. О. (2019). Особенности использования устного народного творчества в развитии речи учащихся начальных классов. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 97.
7. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. - "Toshkent", 2001.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. T., "O'zbekiston", 2010.